



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Gulchexra Pardayeva

Samarqand tumani 10 IDUM boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Annotasiya. Maqolada darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish borasida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: Ishontirish, pedagogik ta’sir usullari, talab, istiqbol, rag‘batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri, ta’sir etish texnikasi, nutq texnikasi.

Bugungi kun o‘qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifa yuklangan bo‘lib, ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo‘lib, ta’limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o‘quvchilarda o‘z faniga qiziqish uyg‘otishlari, xurmat-ehtirom tuyg‘ularini shakllantirib borishlari talab etiladi.

Ta’limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslарini puxta o‘rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini kengaytirish, ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta’lim-tarbiya jarayoniga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan birisi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishda mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’lim muassasalarining moddiy texnik va axborot bazasini mustahkamlash, o‘quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida qayd etilgan. Bundan kelib chiqqan holda ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish davr talabi hisoblanadi. O‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash, bugungi pedagogikaning muhim vazifalaridan. Darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o‘rgatish, o‘qitilayotgan fanni o‘zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda ham turlicha uslublar qo‘llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta’lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun, boshlang‘ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars o‘tish tavsiya qilindi.

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta’minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo‘ldi. Ayniqsa, o‘quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Elektron qo‘llanmalarining “Macromedia Flash”, “GIF Animation”, “Microsoft Front Page”, “Adobe Photoshop”, “3D Max”, “Microsoft Power Point” kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilganligi qulaylik tug‘dirmoqda. Chunki ular harakatli, rangli, ovozli tasvirlar yaratish imkonini beradi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mavzuni tez tushunib olishga, o‘zlashtirish sifatini oshishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo‘llanma va taqdimotlardan o‘quv jarayonida keng foydalanilmoqda. O‘qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko‘rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan: o‘qish va ona tili fanlarida katta ekranda harflarni, so‘zlarni bir-biriga qo‘shib o‘qish, so‘ngra kichik ertak va hikoyalarni o‘qish, harflarni to‘g‘ri va chiroyligi yozish; matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o‘yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi sodda slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o‘quvchining og‘zaki nutqini rivojlanishiga, og‘zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchiga katta yordam beradi. O‘quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o‘tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va

ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Bunga misol qilib, 4-sinf ona tili darslarida foydalanish uchun yaratilgan “Kelishiklar” mavzusidagi elektron taqdimotni aytish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari o‘quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalaniladi. Kitob.uz saytida 1-4 sinf o‘quvchilari uchun deyarli barcha fanlarning elektron darsliklari mavjud. Ammo ular matn va ovoz shaklida taqdim etilmagan. Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slayd-shou ko‘rinishda berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o‘zaro birgalikda qo‘llanishi o‘qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun RTM tomonidan yaratilgan “Sanashni o‘rganamiz”, “Alifbo saboqlari”, “Aljabr”, “5x5” , kabi elektron dasturlar o‘zining qiziqarliligi, o‘quvchilar yoshiga mosligi, **foydalanish uchun soddaligi**, intellektual salohiyatni rivojlantirish, mantiqiy mushohada yuritishga chorlashi bilan ahamiyatlidir.

“Sanashni o‘rganamiz” – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematika fanidan elektron o‘quv vositasi. Mazkur elektron dars ishlanma orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 4 amalni bajarish ko‘nikmasini hosil qilish bilan birgalikda kompyuterning “sichqoncha” qurilmasidan foydalanish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

“Alifbo saboqlari” - 1-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Alifbeni o‘rgatuvchi dastur hisoblanadi. Dasturning afzallik tomoni shundaki, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish (harfni talaffuz qilish va yozish, o‘scha harf bilan boshlanuvchi narsalarning nomlarini o‘rganish)ga yordam beradi. Shuningdek, harflar o‘rganilgandan so‘ng, mustahkamlash maqsadida rasm beriladi. Berilgan katakchaga rasmdagi narsaning nomini to‘ib yozish to‘siriladi. Shu yerda o‘quvchining kompyuter orqali yozuv malakalari shakllantirilib boriladi, test bilan ishlashga ham o‘rgatiladi.

“Aljabr” - 1-sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo‘ljallangan dastur hisoblanadi. Dastur orqali o‘quvchilar 10 ichida raqamlashni, tartiblashni, qo‘sish va ayirish amallarini bajarishni, taqqoslashni o‘rganadilar. Dastur o‘quvchiga og‘zaki misol yechishning avtomatik darajada o‘zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“5x5” - 2-sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, karrali jadvalni o‘rgatuvchi dastur hisoblanadi. Dasturning takrorlash qismida kompyuterning o‘zi tartib bilan 2 dan boshlab 9 gacha karrali jadvalni o‘rgatadi. Imtihon qismida esa o‘quvchi mustaqil ravishda jadvalni ishlab chiqadi. Shunisi e’tiborliki, bir xonani bajarmasdan turib, ikkinchisiga o‘tmasligi o‘quvchini o‘z ustida ishlashiga majbur etadi. Dasturni o‘qituvchi uchun haqiqiy yordamchi desak bo‘ladi. Chunki, sinfning 30-40% o‘quvchisi karrali jadvalni o‘rganishida qiyinchilikka duch keladi. Dastur o‘scha o‘quvchilarga karrali jadvalning avtomatik darajada o‘rganishlarini kafolatlaydi.

Bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarni qo‘llay olishi, o‘quvchilarni komyuterdan erkin foydalanishga, zamonaviy bilimlarni puxta egallahashga, ma’nан yetuk shaxs bo‘lib yetishiga o‘rgatishdan iborat.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.T.Turg‘unov, B.X.Danyarov, M.A.Umaraliyeva “O‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish” .
2. Jumaev A. Ijtimoiy faol o‘qituvchi shaxsi shakllanishining pedagogik-psixologik omillari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2008.
3. **Internet manbalari:** www.ziyonet.uz, www.pedagog.uz